

## O'QUVCHILAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA BADIY ASARLARNING TUTGAN O'RNİ

Barchinoy Sotliqova

Toshkent Davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti o'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakultetining 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7023239>

**Annotatsiya.** Ma'lumki, muhtaram yurtboshimiz tomonidan "Besh tashabbus" loyihasi doirasida yosh avlodni ham ma'nan, ham jismonan yuksaltirish yo'lida katta qadam tashlandi. Bu loyihaning 4-tashabbusi, bilamizki, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ular orasida kitobxonlikni targ'ib qilishga yo'naltirilgan. Albatta, bu bejiz emas. Badiiy asarlar orqali inson nihoyatda katta boylikka ega bo'ladi. Avvalo, dunyoqarash kengayadi, asar misolida o'z hayotini solishtirib, voqealarga sezgirlik bilan nigoh tashlashga o'rganadi. Ayniqsa, sovet tuzumi davridagi o'zbeklar hayoti aks etgan asarlar katta qimmatga ega. Bunday asarlar yordamida kitobxon bugungi kunga shukrona nazari bilan boqadi, hozirgi hayotida har olgan nafasi bir ne'mat ekanini anglab yetadi. Inson nimalarga qodir ekanligi hamda odamzot "inson" degan buyuk nomga munosib bo'lishga intilishi kerakligini anglab yetadi. Biz o'z fikrimizni ushbu maqolada katta iste'dod egasi Shukrullo qalamiga mansub "Kafansiz ko'milganlar" asari asosida yoritib bermoqchimiz.

**Kalit so'zlar:** Tarbiya, tafakkur, ma'naviyat, dunyoqarash, sovetlar siyosati, o'zbeklar, ijodkorlar, omi xalq, inson qadri, mustaqillik.

Siyosat. Judda jiddiy narsa. Aynan mana shu birgina so'z zamirida ne-ne insonlar hayoti barbod bo'lishi ham yo aksincha, baxtli yakun topishi ham mumkin. Mustaqillikka erishmasdan oldin saodatga erishgan oilalarni ko'rmadik, eshitmadik, o'qimadik. Inson bugungi har soniyasi uchun mingdan ming shukrlar aytsa arziydi. Chunki bunday hayotni asrlar oldin orzu qilib yetolmaganlar ancha. Shoir va yozuvchilar bor ekan, avlodlar ajdodlarni unutmaydi, ularning og'ir o'tmishidan boxabar bo'lib, o'z xalqi tarixiga bee'tibor bo'lmaydi. 21-asr odamlari ijodkorlarni qadrlaydi, ammo 20-asr ularning ildizga bolta urdi, e'zozlash o'rniga xo'rladi, mukofotlash o'rniga jazoladi, tinglamasdan og'ziga urdi, asarlari yozib tugatilmadan yer bilan bitta qildi... shunday bo'lsa-da, jasoratli yozuvchilardan o'lmas ijod namunalari yetib keldi. Bu asarlarda adiblar o'zlarining achinarli hayot yo'li bilan hamohang tarzda sovet davrining yaxshiyona siyosati, inson qadrining toptalishi, sodda xalqdan foydalanib ularning ishonchi suiste'mol qilinishi kabi achchiq haqiqatlar o'z aksini topgan. Sovet davrining chirkin siyosati aks etgan talaygina asarlar yaratilgan, jumladan, O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi

qurboni”, „Qatag’on” hamda “Ikki eshik orasi”, Shuhratning “Shinelli yillar”, Erkin Vohidovning “Nido” dostoni, Zulfiyaxonimning “Urush...noming o’chsin jahonda” she’ri(nihoyatda ta’sirli), Shukrulloning “Kafansiz ko’milganlar” romani, Anvar Irgashev va Yulya Medvedovskayalarning “Bir yuz bir” asarlaridir. Bu asarlar nihoyatda sodda tilda yozilgan bo’lib, o’quvchilar mustaqil ravishda o’qisalarida, asosiy mazmuni anglashga, tafakkuriga singdirishga qiynalmaydi.

Boshidan o’tkazgan qiyinchiliklarini, to’g’rirog’i, xo’rliklarini eslash insonni yana bir karra og’ir azobga ro’baro’ qiladi. Uni yozish esa... Qatag’onlik davri tasviri, undan ham og’iri – o’zini “xalq dushmani” deb ayblanganini yozish, mahbusligini eslash, qamoq voqealari, lager hayoti, so’zsizlik... bularning haqqoniy tasviri Shukrulloning “Kafansiz ko’milganlari” da yaqqol ifodalangan. Asarning yana bir ahamiyatli jihati – uning mazkur mavzudagi yagona asarligida. Ushbu xotira-roman kitobxonga qatag’on davri va sovet tuzumining nopok siyosati haqida tirik lavhalarni namoyish etadi. Asarni mutolaa qilish jarayonida inson xuddi film tomosha qilayotgandek voqealarni birma-bir ko’z oldiga keltiradi. Bu asarni o’qiganda aqlga sig’maydigan darajadagi hodisalarga, insoniylikdan ancha yiroq odamlarga duch kelinadi va hayratdan yoqa ushlagan o’quvchi qalbida sovet davri o’zbeklariga, buyuk adiblarimizga nisbatan ulkan achinish hissi uyg’onadi, to’xtovsiz ko’ziga yosh oladi. Hali roman o’qilganda shunday holatga tushilsa, bu asarda yashagan hamda voqealarni birma-bir qog’ozga tushirgan inson hayotini tasavvur qilish nihoyatda daxshatli. Ushbu asar boblarining “Tiriklar qabristoni” hamda “Do’zaxning ikkinchi qopqasi” kabi nomlanishlarining o’zi bir qo’rquvga soladi.

Asarning kulminatsion nuqtalaridan biriga e’tibor beradigan bo’lsak, yozuvchi qamoqxona voqealarini eslar ekan: “Ishga chiqqanimizda harbiy soqchilar bizlarni maxsus o’rgatilgan, sovuqqa nihoyatda chidamli, yirtqich hayvonlar bilan teng olishadigan itlar bilan qo’riqlardilar. Mehnatning nihoyatda og’irligidan Sibir sovuqlarini ham sezmas edik. Odatda mahbuslarning ish haqqi ob-havoga qarab 12-14 soat davom etardi, ammo itlarning ish vaqti ikki soatdan ortmas, chunki ular bu sovuqqa bardosh berolmas edi. Mahbuslarga itchalik ham rahm qilinmasdi”, -deb yozadi. Mana, inson qadri! Mana, inson umrining bahosi!..

Mahoratli adib Shukrulloning “Kafansiz ko’milganlar” asari zamonamiz yoshlarini shukronalikka, har bir daqiqani g’animat bilishga, yaqin insonlarini borida qadrlashga chorlaydi.

Bugungi kunda yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev inson qadrini ulug’lashni ijtimoiy davlatning bosh vazifasi sifatida belgilaydi. Muhtaram Prezidentimiz: “Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro

uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, malakali tibbiy xizmat, sog'lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz", - degan edilar saylovoldi suhbatlaridan birida. Bu kunlarni orzu qilib yetganlar bor, yetmaganlar bor. Mustaqillikka erishilgandan so'ng ijod mavzusi ham tubdan o'zgardi, sovet davrida insonlarning og'ir turmush tarzi aks ettirilgan bo'lsa, endilikda bosh mavzu istiqlol bo'ldi, o'tmishdan saboq olish, yangi tinch va osuda hayot qurish bo'ldi. Sovet davri adabiyoti va mustaqillik davri o'zbek adabiyoti mavzu ko'lami jihatidan bir-biriga qarama-qarshi turadi. O'sha davrda yozuvchi-yu shoirlarimiz tahlika bilan yashagan, chunki ular har bir yozgan so'zi uchun kurashgan, afsuski, haqiqatni kuylagani uchun ne-ne azoblarga duchor bo'lishgan. Shunday bo'lsa-da, jasoratli adiblarimiz kelajak avlod uchun o'z joni evaziga haqiqatni yozishga urinishgan. Chunki ijodkorlar nazdida asl shoir haqiqat kuychisi bo'lmog'i lozim, haqiqatni yozmagan shoir shoir emasdir!

#### REFERENCES

1. Shukrullo. Kafansiz ko'milganlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
2. Sh.M.Mirziyoyev. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. – Toshkent: "Tasvir" nashriyot uyi, 2021.